



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 10-yanvar

02/25-10/01-1-son

**Barcha oliy ta‘lim muassasalari rektorlari  
va direktorlariga,  
vazirlik huzuridagi tashkilotlar rahbarlariga,  
Qoraqalpog‘iston Respublikasi,  
viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta‘limni  
rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy  
boshqarmalari boshliqlariga**

Vazirlikning 2021 yil 26 avgustdagi 373-sonli buyrug‘ining 4-ilovasi bilan “Vazirlik tizimida korrupsion xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” tasdiqlangan. Mazkur meyoriy hujjatni amaliyotga joriy qilish uchun vazirlik tizimidagi tashkilotlar va oliy ta‘lim muassasalari o‘zlari bajaradigan vazifa va funksiyalardan kelib chiqqan holda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni xaritasini ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq.

Shu munosabat bilan Siz rahbarlik qilayotgan tashkilot (muassasa)ning tarkibiy tuzilmalari o‘z faoliyatlarida duch keladigan korrupsion xavf-xatarlarni aniqlashlari, ularni korrupsion xavf-xatarlar xaritasiga kiritishlari hamda aniqlangan korrupsion xavf-xatarlar yuzasidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z dasturini ishlab chiqishlari talab etiladi (*namuna ilovada keltiriladi*).

Ishlab chiqilgan ***korrupsion xavf-xatarlar xaritasini*** hamda ***korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha dasturni joriy yilning 14 yanvariga qadar*** vazirlikning anticor@edu.uz elektron pochtaga yuborishingiz so‘raladi.

*Ilova - \_\_ betda.*

**Vazirning  
birinchi o‘rinbosari**



**K. Karimov**